



**RAUF PARFI SHE'RIYATIDA RAMZIY
OBRAZLAR VA MILLIY XOTIRA POETIKASI**

Murodillayev Nurali,

Xalqaro innovatsion universitet, O'zbek filologiyasi va
jurnalistika kafedrası o'qituvchisi

**SYMBOLIC IMAGERY AND THE POETICS OF
NATIONAL MEMORY IN RAUF PARFI'S
POETRY**

Murodillayev Nurali,

Teacher of the Department of Uzbek Philology and
journalism, International innovation university

**СИМВОЛИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ И ПОЭТИКА
НАЦИОНАЛЬНОЙ ПАМЯТИ В ПОЭЗИИ
РАУФА ПАРФИ**

Муродиллаев Нурали,

Преподаватель кафедры узбекской филологии и
журналистики Международного инновационного
университета



E-mail:

nuralimurodillayev66@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0006-9515-4089>

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18309868>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rauf Parfi she'riyatida ramziy obrazlarning badiiy-falsafiy mohiyati hamda ular orqali ifodalangan milliy xotira poetikasi tahlil qilinadi. Shoirning modernistik tafakkuri, tarixiy haqiqatni bevosita tasvirlashdan ko'ra uni ramziy-falsafiy kontekstda anglashga intilishi ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi.

Kalit so'zlar: milliy xotira, poetik tafakkur, modern she'riyat, ramziylik, badiiy timsol, tarixiy xotira, Turkiston.

Аннотация. This article analyzes the artistic and philosophical essence of symbolic imagery in Rauf Parfi's poetry and the poetics of national memory expressed through these symbols. The study examines the poet's modernist worldview and his tendency to interpret historical reality not through direct depiction but within a symbolic-philosophical context.

Ключевые слова: national memory, poetic thinking, modern poetry, symbolism, artistic image, historical memory, Turkestan.

Annotation. В данной статье анализируется художественно-философская сущность символических образов в поэзии Рауфа Парфи и поэтика национальной памяти, выраженная через эти символы. Освещается модернистское мировоззрение поэта и его стремление осмыслить историческую реальность не посредством прямого изображения, а в символично-философском контексте.

Keywords. национальная память, поэтическое мышление, современная поэзия, символизм, художественный образ, историческая память, Туркестан.

KIRISH

O'zbek modern she'riyati XX asrning ikkinchi yarmida tub badiiy izlanishlar va poetik tafakkurning yangi bosqichini boshdan kechirdi. Ana shu jarayonda Rauf Parfi ijodi o'ziga xos estetik fenomen sifatida namoyon bo'lib, milliy adabiy tafakkurning



yangilanishida beqiyos o‘rin tutdi. Shoirning poetik izlanishlari, ayniqsa, ramziylik (simvolizm), ichki monolog, ruhiy kechinmalarni falsafiy qatlam orqali talqin qilish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Rauf Parfi o‘zbek she‘riyatiga nafaqat yangi obrazlar tizimini, balki o‘ziga xos badiiy dunyoqarash – milliy xotira, tarixiy ong va ma‘naviy uyg‘onish g‘oyalariga tayangan poetik makonni olib kirdi.

Shoir asarlarida milliy o‘zlikni anglash, xalqning tarixiy taqdiri, ozodlikka intilish, ruhiy iztirob va ma‘naviy uyg‘onish kabi mazmunlar ramziy obrazlar vositasida badiiy umumlashma darajasiga ko‘tarilgan. Rauf Parfi ramziy obrazni nafaqat estetik kategoriya, balki tarixiy xotirani jonlantiruvchi poetik vosita sifatida qo‘llaydi. Shu bois uning she‘riy olamida shamol, quyosh, tun, tong, jilva, sukunat, ruh, iztirob kabi ko‘plab timsollar metafizik ma‘no kasb etadi va milliy ma‘naviyatning chuqur qatlamlari bilan bog‘lanadi.

Shoirning “Ona Turkiston” kitobiga kiritilgan she‘rlarida bu jihatlar yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur to‘plam Rauf Parfining Turkiston fojiviy taqdirini badiiy-falsafiy mushohada orqali yoritishga intilganini ko‘rsatadi. She‘rlarda mustamlaka davri zulmi, jadidlar merosi taqdiri, tarixiy xotiraning buzilishi, milliy uyg‘onish orzusi singari motivlar modernistik poetika bilan uyg‘unlashib, ramziy obrazlar tizimi orqali yanada ta‘sirchanlik kasb etadi. Shoir tarixiy jarayonlarni bevosita tasvirlashdan voz kechib, ularni ramziy-falsafiy kontekstda talqin etadi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek modern she‘riyatida tarix xotirasini badiiy ifodalashning yangi shaklini yuzaga keltirdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mazkur tadqiqotda Rauf Parfi she‘riyatidagi ramziy obrazlar tizimini ilmiy asosda tahlil qilish uchun bir nechta zamonaviy filologik metodlardan foydalanildi. Har bir metod shoir poetikasini turli rakursdan yoritish, asarlarning ichki semantik qatlamlarini aniq belgilash hamda ramziy mazmunni kengroq anglashga xizmat qiladi.

Poetik tahlil metodi. Ushbu metod she‘riy matnning badiiy tabiati, uning poetik konstruksiyasi, obrazlar tizimi, ritmik-intonatsion qurilishi, leksik-semantik qatlamlari va ramziylik darajasini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Tadqiqotda shoir poetikasidagi “fojiviy ohang”, “iztirob estetikasining” badiiy ifodalanish mexanizmlari aniqlanib, ular matni mazmuniy boshqaruvchi unsurlar sifatida baholandi.

Tarixiy-adabiy yondashuv. Rauf Parfi ijodidagi ramzlarning to‘laqonli talqini uchun she‘rlarda aks etgan tarixiy kontekstni yoritish zarur. Shu maqsadda XX asr



boshidagi Turkiston muxtoriyati, mustamlakachilik siyosati, jadidchilik harakati, 1930-yillardagi qatag'onlar, sovet mafkurasining milliy xotiraga ta'siri kabi tarixiy hodisalar bilan bog'liq ma'lumotlar tahlilga jalb qilindi. She'rlarda uchraydigan "dor", "simlar", "zich havo" singari obrazlarning zamirida aynan tarixiy jarayonlar – ozodlik harakatining fojiviy yakuni, jadidlar taqdiri, mustamlaka zo'rvonligining izi yotganligi tarixiy-adabiy yondashuv asosida izohlandi. Bu metod shoir she'riyati va tarixiy xotira o'rtasidagi organik bog'liqlikni ochib berdi.

Intertekstual tahlil. Klassik adabiyot, tasavvufiy meros va tarixiy matnlar bilan yashirin dialogga kirishish – Rauf Parfi poetikasining muhim xususiyatlaridan biridir. Intertekstual tahlil metodidan foydalanilgan holda shoirning Yassaviy hikmatlariga murojaati, tasavvufiy metaforalar ("ruh", "nur", "tavba", "sukunat") va tarixiy matnlar (Turkiston haqidagi eslatmalar, milliy qahramonlar timsoli) bilan aloqador qatlamlar o'rganildi. Rauf Parfi yaratgan ramziy makonda Yassaviyona ruhiy poklanish va milliy o'zlikni anglash g'oyasi qanday qayta badiiy talqin etilgani, tasavvufiy obrazlarning modernist estetikaga moslashtirilgani ilmiy asosda ko'rsatib berildi. Intertekstual bog'liqlar shoirning poetik tafakkurini shakllantiruvchi ma'naviy manbalar tizimini aniqlashga yordam berdi.

Ramziy-semantik tahlil. Tadqiqotning markaziy metodlaridan biri sifatida ramziy-semantik tahlil tanlandi. Bu yondashuv shoir yaratgan obrazlarni faqat estetik vosita sifatida emas, balki milliy xotira va tarixiy haqiqatni kodlovchi ramziy birliklar sifatida talqin qilishni ko'zda tutadi. "Zich havo", "shamol", "dor", "simlar", "nur", "iztirob", "Ona Turkiston" kabi timsollar semantik kengligi va poetik umumlashmalari asosida tahlil qilindi. Ushbu metod orqali har bir obrazning matn ichidagi funksiyasi, kontseptual markaz sifatidagi roli, ramziy sathining darajasi aniqlanib, ularning metafizik va falsafiy ma'nosi ochib berildi. Shuningdek, ramzlarning tarixiy xotira bilan bog'liqligi, ozodlik g'oyasi bilan semantik aloqasi ham izohlandi.

TADQIQOT NATIJALARI

Rauf Parfi she'rining dastlabki bandida keltirilgan "uzun" va "og'ir yo'l" obrazlari shunchaki makon va masofa tasviri emas, balki o'zbek millatining XX asr bo'ylab kechgan murakkab tarixiy yo'lini badiiy umumlashtiruvchi ramziy struktura sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu yo'l jadidlarning qatag'on qilinishi, Turkiston muxtoriyatining tez fursatda bostirilishi, mustamlakachilik siyosatining mafkuraviy va ma'naviy bosimi, quloqlashtirish, kollektivlashtirish fojialari, 1937–38-yillardagi ommaviy repressiyalar va sovet ideologiyasining milliy ongga qarshi yurgizgan siyosatini



o'zida mujassam etadi. Shu ma'noda "og'ir yo'l" – tarixiy jarohatlar, yo'qotishlar, ma'naviy bo'g'ilishlar bilan to'la milliy xotira qatlamini ifodalaydi.

"Ona Turkiston" she'ridagi eng dramatik ramzlardan biri – "zich havo" obrazidir. U nafaqat fizik bo'g'ilish holatini, balki totalitar siyosatning mafkuraviy ta'sirini badiiy ifodalaydi. Mustamlakachilik tuzumi sharoitida yaratilgan qo'rquv, anonim kuzatuv, fikriy erkinlikning bo'g'ilishi, senzura, ziyolilarning yo'q qilinishi – bularning barchasi "havoning zichligi"da kontsentratsiya qilinadi.

Bu obraz jamiyatning ruhiy holatini, ayniqsa, 1930–50-yillardagi tazyiqlarni eslatuvchi metafora sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning "Mening uni deya ayagan jonim..." degan misrasi esa Rauf Parfining o'z avlodini "qonga botgan davr" farzandi emas, balki fikr erkinligi uchun kurashish ruhida ulg'aygan avlod sifatida ko'rishidan dalolat beradi. Shu tariqa shoir o'z burchini tarixiy xotirani uyg'otish, fikriy erkinlikni asrash bilan bog'laydi.

She'rda Yassaviy siymosiga murojaat qilinishi ramziy-estetik jihatdan juda muhim. Yassaviy – tasavvuf falsafasining adolat, poklik, halollik, jamiyatni isloh qilish g'oyalari bilan bog'langan markaziy figura. Shoirning "g'ishtlarning tovushga aylanishi", "qadim so'zlar nidosi" kabi poetik satrlari o'tmishdan kelayotgan ma'naviy ovoz, adolat chaqirig'i timsoli sifatida talqin qilinadi.

Yassaviy maqbari mung'aymish mag'rur.

Tovushga aylandi har bir g'isht rangi.

"Dunyo mening deganlar..." Nido kelur.

"Karkas qushdek..." Qadim so'zlar jaranggi.

"O'lg'on da'vo qilganlar..." So'zlar shoir.

"Oqni qaro deganlar..." Ayting, kimlar?!

Maqbara boshimga yiqilar hozir,

Yana tovush: "Harom yegan hokimlar..." Yassaviy hikmatlarida uchraydigan "dunyo mening deganlar" – hokimiyatparastlikka qarshi tanqid, "oqni qaro deganlar" – adolatning buzilishi, "harom yegan hokimlar" – zulm va buzg'unchilik ramzi singari tushunchalar zamonaviy Turkiston tarixiga ramziy tarzda tatbiq qilinadi. Rauf Parfi Yassaviy hikmatlaridagi ma'naviy signalni sovet mustamlakachiligi davridagi axloqiy inqiroz bilan qiyoslaydi va bu orqali tarixiy xotiraning uzluksizligini ta'kidlaydi.

Shoir "Simlar – ko'zlarimga mil tortgan chizgu..." deya tasvirlar ekan, bu obraz nafaqat qayg'uli xotiralar tizimini, balki xotira va o'tmishning majburiy eslatilishi bilan bog'langan ruhiy og'riqni bildiradi. Bu yerda simlar – totalitar



tuzumning doimiy nazorati, senzura, fikr chegaralari, shaxs ongiga bosim kabi tushunchalarning semantik markaziga aylanadi.

Turkistonning “Xotirota mozori” sifatida talqin qilinishi esa milliy tarixning mangu jarohatlar makoni, unutilgan yoki atayin unuttirilgan tarixiy haqiqatlar yotgan, o‘ziga xos ramziy nekropol sifatida ko‘rsatadi. Bu metafora millatning tarixiy travmasi hali bitmaganini, xotira hali ham og‘riq manbai bo‘lib qolayotganini ta’kidlaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar Rauf Parfi she’riyatining o‘ziga xos modernistik poetik makon yaratish orqali milliy tarix xotirasini qayta idrok etishga qaratilganligini tasdiqlaydi. Shoir ramziy obrazlar vositasida tarixiy jarayonlarni nafaqat yodga oladi, balki ularni poetik tafakkur darajasiga ko‘tarib, o‘zbek modern she’riyati uchun yangi semantik imkoniyatlar ochadi. Ayni paytda Parfi ijodida ramziylik o‘tmishni mavhumlashtirish emas, balki aksincha, uni yanada aniqroq, ichki ma’nosi chuqurroq ko‘rinishda qayta yaratish vositasiga aylanadi.

Rauf Parfi ramzlardan faqat badiiy bezak sifatida foydalanmaydi. Uning ramziy obrazlari – tarixiy haqiqatlarni oshkora aytish mumkin bo‘lmagan davrda bu haqiqatni obraz orqali yetkazishning alternativ metodiga aylanadi. Bu jihatdan Parfi simbolizmi rus kumush asri simbolistlaridan farqli o‘laroq ko‘proq ijtimoiy-milliy xotira bilan chambarchas bog‘langan. “Ona Turkiston” she’rida “*zich havo*” (ideologik bosim, qo‘rquv), “*uzun va og‘ir yo‘l*” (millatning mustaqillikkacha bo‘lgan murakkab tarixiy yo‘li), “*simlar*” (nazorat, senzura, tarixiy jarohat) kabi obrazlar orqali tarixiy xotira poetik tilga ko‘chiriladi. Demak, ramziy obrazlar shoirga tarixni badiiy tafakkur yordamida qayta konstruksiya qilish imkonini beradi.

Rauf Parfi modernizmga xos bo‘lgan psixologik chuqurlik, lirizm, ruhiy ziddiyatlarni ifodalash orqali o‘tmish fojialarini “ichki tajriba” sifatida kashf etadi. Bu jihatdan Parfi poetikasi A. Aripov yoki O. Matjon lirikasiga nisbatan ko‘proq individual ruhiy kechinmalar bilan boyitilgan bo‘lib, o‘tmishning milliy tragediyasi shoirning shaxsiy fojialari bilan tutashib ketadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Rauf Parfi o‘zbek she’riyatiga modernistik tafakkur olib kirgan ijodkorlar orasida eng ta’sirli shaxslardan biridir. Shoir ramzlarni tarixiy xotira bilan bog‘laydi, millat kechinmalarini metafizik darajada talqin qiladi, poetik tilni yangilaydi, lirikaning semantik makonini kengaytiradi. Natijada Rauf Parfi she’riyati nafaqat estetik yangilik, balki milliy ongni uyg‘otuvchi, tarixni badiiy idrok etishni ta’minlovchi adabiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Uning poetik makoni o‘zbek modern she’riyati uchun yangi



bosqich – **ramziy milliy modernizm** bosqichini shakllantirishga xizmat qilganini tasdiqlaydi.

XULOSA

Umuman olganda, Rauf Parfi o‘zbek modern she‘riyatiga ramziy milliy modernizmni olib kirgan ijodkor sifatida milliy adabiy tafakkurni yangilashda ulkan hissa qo‘shdi. Uning poetik olami milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma‘naviy uyg‘onish g‘oyalarini badiiy-falsafiy darajada yoritib, o‘zbek she‘riyatida yangi semantik makon, yangi badiiy model yaratdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Parfi poetikasidagi ramziylik millat tarixini anglash, uni ruhiy-estetik idrok etishning samarali badiiy uslubiga aylangan bo‘lib, bu hodisa o‘zbek modern she‘riyati taraqqiyotida bosqichli burilish bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N. Rahimjonov. Istiqlol va bugungi adabiyot. – T.: “O‘QITUVCHI”, 2012.
2. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. –Toshkent: “Sharq”, 2013.
3. <https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/7-o-zbek-zamonaviy-sheiyati?download=2195:rauf-parfi-ona-turkiston>